

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.717 (575.1)

Akmalov Sarvar Ziyodxon o'g'li

**BANKLARDA ICHKI OPERATSION XARAJATLAR HISOBİ VA
TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Mutaxassislik: 5A230901– «Buxgalteriya hisobi» (tarmoqlar va sohalar
bo'yicha)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d.prof. M.B.Kalonov

Toshkent- 2021


Mazkur magistrlik disertatsiya ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'ja yurituvchi subyektlarda xususiy kapitallar, xususan unda maqsadli tushum hisobini shakllantirishning o'ziga hos hususiyatlari tadqiq qilingan, horij tajriba chuqur o'rganilgan hamda uni moliyaviy hisobotning halqoro standartlari asos takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

This master's dissertation explores the specifics of the formation of private capital in businesses in the digital economy, in particular, the calculation of tax revenues, in-depth study of foreign experience and scientific proposals and practical recommendations for its improvement on the basis of international financial reporting standards.

Magistrlik disertatsiya ishi "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dastlab himoyadan o'tgan:

«_____» - sonli bayonnoma «_____» _____ 2021 yil.


Ilmiy raxbar: i.f.d. prof. M.B.Kalonov



ИМЗО

сана

Magistr: S.Z.Akmalov




ИМЗО

сана

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida mudiri,
dots. Abdusomova N.B.



«_____» iyun 2021 yil

Himoya 2021 yil "29" iyun soat 14-00 da Toshkent davlat iqtisodiy universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

Kirish	4
1-bob. Bank ichki operatsiyalari hisobining nazariy asoslari.....	8
1.1. Bank ichki operatsiyalari va ularning turkumlanisi.....	8
1.2. Banklarning bank ichki operatsiyalarigisobining uslubiy asoslari.....	14
1.3. Tijorat banklarida ichki operatsion xarajatlar hisobining amaldagi holati.....	23
1-bob bo'yicha xulosa.....	31
2-bob. Banklarda ichki operatsion xarajatlar hisobi vatahlilini tashkil etish masalalari	32
2.1. Bank ichki operatsiyalari hisobini tashkil qilish amaliyoti.....	32
2.2. Tijorat banklarida bank ichki operatsiyalari hisobini takomillashtirish..	36
2.3. Xorijiy banklarda bank ichki operatsion xarajatlar tahlili.....	46
2-bob bo'yich xulosa	52
3-bob. Banklarda ichki operatsion xarajatlarini tahlilini tashkil etish yo'llari	53
3.1. Respublikamizda tijorat banklari ichki operatsiyalari tahlilini tashkil etish zarurlari	53
3.2. Tijorat banklari operatsion xarajatlari tahlilini amaldagi holati tahlili.....	62
3-bob bo'yicha xulosa	73
Xulosa	74
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	75

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bank muassasalari moliyaviy barqarorligining asosiy belgilaridan biri ular faoliyatining daromadliligi hisoblanadi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi bevosita bank tizimi bilan bog'liq. Zero, bank tizimi bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyalashtirishning ishonchli moliyaviy institutlaridan biridir. Ya'ni, banklar mamlakat iqtisodiyotida jamg'armalarni shakllantirishi, vositachilik operatsiyalarini amalga oshirishi, kreditlar berishi hamda qarz oluvchilar tomonidan moliya intizomiga rioya etilishini nazorat qilish borasida muhim ahamiyat kasb etuvchi sub'ektdir. Tijorat banklari bozor infratuzilmasidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun funktsiyalarini to'laqonli tarzda bajarishlari talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi zaruriy sharti – kapital yetarliligini ta'minlash, bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishish, bank foydasini ko'paytirish va xarajatlarini kamaytirish hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to'g'risida” da moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozimligi ta'kidlangan. Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ilg'or xorij tajribasi asosida